



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**


"TASDIQLAYMAN"
Rektor: Sh. Sirajiddinov
201 8 -yil 26 08


"K"
Oliy va o'rta ta'lim vazirligi
201 8 yil "2
Ro'yxatga olindi: № BD-5120900 – 3.10
201 8 yil "18" 08

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARINING CHOG'ISHTIRMA
GRAMMATIKASI**

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar
Ta'lim sohasi:	120000	– Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120900	– O'zbek – ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti

Toshkent – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 25.08 dagi 744 - sonli buyrug'i bilan fan dasturlari ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.


Tuzuvchilar:

Sayfullayev A.I. – ToshDO'TAU "Ingliz filologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Azimov I.M. – ToshDO'TAU, "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Galiyeva M.R. – O'zDJTU "Lingvistika va ingliz adabiyoti" kafedrasida mudiri dots., filologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "05" 07 dagi "13" -sonli bayonnomasi).

2


I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan ikki til qiyosiy va chog'ishtirma grammatikasini o'z ichiga oladi. O'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi tilning grammatik jihatlarini, tilning grammatik strukturasi (tuzilishi), til birliklarining grammatik xususiyatlari, so'z yasash usullari, til lug'at tarkibining etimologiyasi, til birliklarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari til variantlari, tilning funksional jihatlarini va shunga o'xshash dolzarb muammolarni har tomonlama o'rganib, o'zbek va ingliz tillaridagi morfologik va sintaktik xususiyatlari chog'ishtirish va til taraqqiyotining qonuniyatlarini yoritib beradi.

"O'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. "O'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi" fani 5120900-O'zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga til to'g'risidagi asosiy nazariy tushunchalar, chet tilini o'rganishning uslub va yondashuvlari, tilning ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati bilan tanishtirish, ularga til sathlarining nutqiy muloqot jarayonida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarini o'rgatishdan iboratdir. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi fani turli muloqot turlari, jumladan, odatiy, lisoniy, badiiy va ilmiy muloqotni o'rganish bilan bir qatorda, ish munosabatlari (biznes, marketing, menejment sohalarida) ham muloqot malakalariga ega bo'lishda va til mohiyatining nazariy asoslarini tushinishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan - talabalarga tabiiy til mohiyatiga oid bilimlarni egallashga imkoniyat yaratish, ularda tilning ichki tuzilmasi, til qatlamlari va birliklarini ilmiy asosda tadqiq etish ko'nikmalarini shakllantirish, hamda ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatlari to'g'risida ilmiy-nazariy tushunchalarga ega bo'lishlarini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- O'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi til strukturasi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibining asosiy tushunchalari va kategoriyalari to'g'risida **bilimga ega bo'lishi;**

- Tilshunoslik nazariyasi asoslarini lingvistik qonunlar, tushunchalar kategoriyalarini, muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**

-talaba lisoniy muloqot jarayonlarini tahlil qilish usullarini qo'llash, nutqiy muloqot muammolari bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

O'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi

1-mavzu: O'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi faniga kirish

Morfologiya va sintaksis. Grammatikaning ta'rifi. Grammatik shakl va grammatik ma'no. Til va nutq. Aktualizatsiya. Grammatik qurilishning birliklari. Tilni grammatik jihatdan tasvirlashning turlari. Grammatikadagi metod va nazariy yo'nalishlar. Grammatikadagi asimmetriya hodisasi. Funktsional yondashuv. Grammatik kategoriyalar. Grammatik kategoriyaning mazmun plani. Grammatik kategoriyaning ifoda plani.

2-mavzu: Morfologiya

O'zbek va ingliz tillarining grammatik vositalari: so'z tartibi, yordamchi so'zlar, grammatik qo'shimchalar, urg'u va intonatsiya, o'zak tarkibidagi tovushlar o'zgarishi. Morfema, morf, allomorf va ularning strukturaviy turlari. Morfemaning turlari. Analitik shakl tushunchasi. Til grammatik tizimining xususiyatlari. So'z turkumi. Asosiy so'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'zlar. O'rganilayotgan tilda so'z turkumlarining umumiy xususiyatlari. So'z turkumlarining shakl va ma'nolari. Transpozitsiya hodisasi.

3-mavzu: Ot so'z turkumi

Horijiy tilda otning distributiv belgilari. Ularning belgilovchi va boshqa so'z turkumlari yordamida qo'shilishi. Otning so'z turkumi sifatida morfologik va semantik xarakteristikasi. Otlarning asosiy semantik guruxlari. Son kategoriyasi. Ingliz tilidagi otlarda ko'plik kategoriyasining ishlatilishi. Jamlovchi va partitiv otlar.

Determinativlar. Determinativlarning so'z turkumi sifatidagi umumiy xossalari. Determinativlarning semantikasi. Kelishik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi haqida har xil nazariyalar. Egalik kelishigining shakli va uning qo'llanish xususiyatlari. Aniqlik-noaniqlik kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita. Artiklning umumnazariy muammolari. Rod kategoriyasi, artiklning funksiyalari.

4-mavzu: Sifat va ravish

Sifat so'z turkumi sifatida. Uning asosiy xususiyatlari. Sifatning semantik tasnifi. Qiyoslash kategoriyasiga oid olmoshlarning semantikasi, sintaktik xossalari, grammatik kategoriyalari va shakllari. Ravishning semantik - grammatik guruhlari. Adverbializatsiya.

5-mavzu: Fe'l

Fe'l - so'z turkumi sifatida. Uning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, umumiy va farq qiluvchi tomonlari. Fe'lning morfologik vazifasiga ko'ra tasnifi: mustaqil fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar, ma'no jihatidan tugallangan va tugallanmagan fe'llar.

6-mavzu: Fe'lning grammatik kategoriyalari

Aspekt (tarz) kategoriyasi, nisbat kategoriyasi. Majhullik nisbatining keng tarqalish sabablari. Majhul konstruksiyalarning qo'llanish xususiyatlari. Fel mayllari. Ular to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar. Fe'lning semantik - grammatik guruhlari. Fe'l tizimidagi grammatik ma'nolarni ifoda qilish vositalari. Fe'lning shaxssiz formolari. Infinitiv, gerundiy va sifatdosh.

7-mavzu: Son, Olmosh

Son-so'z turkumi sifatida. Conning turlari. Sonning gapdagi vazifalari. Olmosh so'z turkumi sifatida. Olmoshning kelishik kategoriyasi. Olmoshning semantik va strukturaviy turlari.

8-mavzu: Yordamchi so'z turkumlari

Artikl, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va modal so'zlar.

9-mavzu: Sintaksis

Gap tushunchasini aniqlash xaqidagi asosiy fikrlar. Gapni aniqlashda klassik yondashuv. Gap tasnifi. Gapning maqsadga ko'ra turlari: bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar. Gapda ellipsis tushunchasi. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarning farqi.

10-mavzu: Gap - kommunikatsiya birligi sifatida, gapning vazifasi, tuzilishi.

Asosiy va ikkinchi darajali bo'laklar. Ega. Eganing ifoda vositalari. Kesim - gapning asosiy belgisi sifatida. Modallik tushunchasi. Kesimning asosiy xususiyati. Modallik kategoriyasining ifoda usullari. So'z birikmasi. Birikma xosil bo'lish omillari. So'z birikmasining strukturaviy - funksional tipologiyasi. So'z

birikmasining komponentlari o'rtasidagi semantik munosabatlar. Gap bo'laklarining strukturaviy tiplari. Gap bo'laklari va so'z turkumlari o'rtasidagi munosabat. Predikativlik munosabatlarning o'ziga xos shakllariga ega bo'lgan gaplar. Qisqartirilgan sintaktik strukturaga ega bo'lgan gaplar. To'liqsiz gaplar. Atov gaplar. Polipredikativlik va murakkablashgan gaplar. Qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar.

11-mavzu: Til grammatik strukturasi tahlil qilishning zamonaviy metodlari

O'rganilayotgan til grammatik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. Grammatik ma'noni ifoda etuvchi vositalar. Grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari. So'zning sintetik va analitik shakllari. So'z turkumlari va gap bo'laklari orasidagi munosabat. So'zning morfologik strukturasi. Morfema va uning turlari. Kombinatorika tushunchasi. Morfologiya va Sintaksis. Sintaktik strukturalar. Sintaksisda modellash tushunchasi. Gapni tahlil qilish metodlari.

12-mavzu: Grammatikaning turlari

An'anaviy grammatika, mantiqiy grammatika, strukturaviy grammatika, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish grammatikasi, transformatsion grammatika, generativ grammatika, kelishik grammatikasi, kognitiv grammatika. O'rganilayotgan tilda til birliklari orasida kuzatiladigan sintaktik aloqalar turlari; Koordinatsiya, Subordinatsiya, Predikatsiya, Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari. Murakkab tarkibli strukturalar. Polipredikativ qurilmalarning strukturaviy-funksional tahlili.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliyot mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbek va ingliz tillarining chog'ishtirma grammatikasi fanining maqsadi va predmeti.
2. Til va nutq. Grammatikada metod va nazariy yo'nalishlari. Grammatik tahlil usullari.
3. So'zning morfologik qurilishi: morfemalar tiplari va sinflari.
4. So'z tuzilishidagi diaxronik va sinxronik qarash. Morfema va allomorfemalar.
5. Morfologiya. Grammatik shakl va grammatik ma'no. Grammatik ma'noni ifodalash usullari.
6. O'rganilayotgan tildagi so'zlarni turkumlarga ajratishning asosiy tamoyillari.

7. O'rganilayotgan til morfologiyasi. O'rganilayotgan tilda ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.
8. O'rganilayotgan tilda fe'l so'z turkumi. Fe'lning strukturasi va grammatik kategoriyalari.
9. O'rganilayotgan tilda fe'lning semantik xususiyatlari
10. O'rganilayotgan tilda Sintaksis. So'z birikmasi va sodda gap.
12. Sintaksis. Sintaktik birliklar. Sintaktik aloqalar turlari.
13. So'z birikmalarining asosiy belgi va xossalari.
14. Gap nazariyasi. Gapning ta'rifi va klassifikatsiyasi. Mikro va makrosintaksis. Gapni tahlil qilish metodlari.
15. O'rganilayotgan tilda gapning tuzilish jihatdan turlari.
16. O'rganilayotgan tilda qo'shma gap turlari.
17. Majhul nisbatning rivojlanishi, ish – harakat va holat passivi ma'nolarning farqlanishi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.
2. Fe'l so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.
3. Sifat so'z turkumi va uning turlari.
4. Son kategoriyasi.
5. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari.
6. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.
7. O'rganilayotgan tildada qo'shma gaplar.(Bog'langan qo'shma gap va ergashgan gapli qo'shma gap)
8. Gapda sintaktik aloqalar turlari.
9. Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari.
10. An'anaviy grammatika, mantiqiy grammatika
11. Strukturaviy grammatika, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish grammatikasi
12. Transformatsion grammatika, generativ grammatika, kelishik grammatikasi, kognitiv grammatika.
13. O'rganilayotgan tilda til birliklari orasida kuzatiladigan sintaktik aloqalar turlari; Koordinatsiya, Subordinatsiya, Predikatsiya, Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari.
14. Murakkab tarkibli strukturalar.
15. Polipredikativ qurilmalarning strukturaviy-funksional tahlili.
16. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va Qo'shimcha o'quv adabiyotlar xamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Eastwood J. Oxford guide to English grammar, Oxford, OUP, 2002, 453p
2. Blokh M. Y. Theoretical Grammar of the English Language.- M., 2004
3. Iriskulov M.Kuldashev A. Theoretical Grammar of the English Language T.,2008
4. Nino Kirkavialidze Theoretical Course of English Grammar Tbilisi 2013
5. Кобрина В.А. Теоретическая грамматика английского языка. - М.,2010

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Downing A., Locke F. English Grammar. A University Course. Routledge, 2006, 640 p
2. Худяков А.А. Теоретическая грамматика английского языка.- М.,2007
3. Valeika L. An Introductory Course in Theoretical English Grammar, Vilnius, 2009
4. Kirvalidze N. Theoretical Course of English Grammar, Tbilisi, 2006.
5. Кваскова Л. Теоретическая грамматика английского языка, М., 2005.
6. Nino Kirkavialidze Theoretical Course of English Grammar.- Tbilisi, 2013
7. Burdina S. Theoretical Grammar, Луганск, 2013.
8. Ирискулов М.Т. Курс лекций по теоретической грамматике английского языка Т., 2004
9. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов М., 1969

Internet saytlari

1. <http://encyclopedia.farlex.com>
2. <http://tpot.ru/index.html>.<http://www.oup.co.uk>
3. www.onestopenglish.com.<http://youreng.narod.ru/teoper.html>
4. Website dedicated to linguistics: www.linguist.org
5. Русский филологический портал: www.philology.ru
6. www.dissercat.ru
7. www.dissorg.com
8. www.uzscience.uz
9. www.linguist.org